O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

bilan til vositasidagi munosabatlar bo‘lmaganda, yangi tug‘ilgan individ shaxs sifatida shakllanmagan bo‘lar edi. Yana bir e'tiborli jihat shuki, kishi so‘zlashuv texnikalaridan o‘z-o‘zini qaror toptirish vositasi sifatida foydalanishi qanchalik muhim bo‘lsa, xuddi shu muloqoti orqali o‘zgalarga ruhiy, psixik ziyon yetkazib qo‘ymaslikka erishishi ham shunchalik ahamiyatlidir. Ya'ni so‘zlashuv mexanizmlaridan oqilona, o‘z o‘rnida foydalanish o‘ta zaruriy jihatdir. So‘zlashuvdagi muvaffaqiyat bir tomondan so‘zlashuv mexanizmlaridan oqilona foydalanishga chambarchas bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan kishining individual xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ammo, bundan kishi suhbat texnikalarini yaxshi o‘zlashtirib olsa ham, muloqotdagi muvaffaqiyatga yetisha olmay qolishi mumkin, degan ma'no kelib chiqmaydi. Insonda qadimdan o‘zini qaror toptirish va o‘zini rivojlantirishga ehtiyoj bor. Xuddi ana shu ehtijoy kishining muloqotdagi muvaffaqiyatini ham ta'minlab berishga qodirdir. Shu xulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- insonlar bilan muloqot qilganda atrofidagi shaxslarga obyektiv nuqtayi nazardan baho berishsa;
- muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotganiga bog‘liq ekanligini hisobga olishsa;
- muloqotda avvalgi kishilardan olingan tasavvurlarning ayni paytdagi vaziyatga nisbatan to‘g‘ri-noto‘g‘riligiga juda qattiq ahamiyat berishsa;
- muloqot jarayonida suhbatdoshni inson o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Psixologiya nazariyasi va tarixi. 290-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019-yil.

2.Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. 44-46-bet. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent. 2006-yil.

3. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. 192-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2010.

4. Yunusjonova Z.S., Mirzayeva S.A., Bositxonova E.I. Psixologik parvarish. 51-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2010.

DIQQAT KONSENTRATSIYASINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH

Anorboyev Xayitboy Eshboy o‘g‘li,
Sufxiddinov Sayfiddin Qahramon og‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
anorboyevhayitboy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada diqqat, diqqat funksiyasi, diqqat xususiyatlari, diqqat xossalari, diqqat hajmi, diqqat barqarorligi, diqqatning taqsimlanishi, diqqatning ko‘chishi, diqqatning bo‘linishi, diqqatning jamlanishi, parishonxotirlik, parishonxotirlik turlari, diqqatning rivojlanishi va yosh davrlarida diqqatning darajasi to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Diqqat, diqqat funksiyasi, diqqat xususiyatlari, diqqat xossalari, diqqat hajmi, diqqat barqarorligi, diqqatning taqsimlanishi, diqqatning ko‘chishi, diqqatning bo‘linishi, diqqatning jamlanishi, parishonxotirlik, soxta parishanxotirlik, haqiqiy parishonxotirlik, diqqatning rivojlanishi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta’rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir ob’ektga aktiv (faol) qaratilishi aytiladi (P. I. Ivanov). P. I. Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o‘zimiz qilgan ishimiz, o‘y va fikrlarimiz diqqatning ob’ekti bo‘la oladi.

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ular samaradorligini ta’minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan o‘zoq muddatli, mas’uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo‘yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti- harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsuldorligini oshirishga ta’sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan ob’ektlar ong to‘plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat-aqliy jarayonlarning sifati, mahsuldorligi va samaradorligini ta’minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Inson biron bir narsani bilish anglashi va ularni idrok etish xotirada saqlash, yoki biron bir muammo ustida mushohada yuritishi uchun ongda to‘plash va yo‘naltirishi lozim bo‘ladi. Diqqatning muhim xususiyatlaridan biri uni to‘planishi va yo‘nalganlik xarakteriga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida har bir ruhiy jarayonning o‘ziga xos o‘rni bor. Diqqatni mahsuldorlik hamda yaqqol natijalarga ega bo‘lishi shaxs ruhiyatining shunday bo‘g‘iniga bog‘liqki ko‘p hollarda psixik hollarda psixik jarayonlarning rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar vaqtida e’tibordan chetda qoldiriladi. Diqqatni amaliy o‘rganish va uning natijalarini psixologik tahlil etish shaxs faoliyatni samarali tahlil etish imkonini beradi. Diqqatni amaliy or’ganish boshqa ruhiy jarayonlardan farqli tomoni shundaki uni baholashda bir qator jihatlari inobatga olinadi. Diqqatni psixik jarayon sifatida qarash yoki uni jarayon sifatida e’tiborga olinmaydigan tomonlari ham mavjud jarayon emasligiga sabab uning alohida faoliyat sifatida mahsulga ega emasligi, lekin boshqa psixik jarayonlar bilan ishtirok etgan holda namoyon bo‘lishi isbotlangan. Sensor, perseptiv va intelektual diqqat holat sifatida esa to‘planganlik holatini shaxs xususiyat sifatida e’tiborlilik tarzida namoyon bo‘ladi. Diqqatning bir qator xususiyatlari tanlovchanligi kuchi, barqarorligi, to‘planish hajmi, taqsimlanishi va ko‘chishi kiradi. Diqqat hajmi qisqa vaqt ichida idrok etilgan obektlar miqdori tushuniladi. Diqqatning barqarorligi bu subektning psixik faollik yo‘nalishidan chalg‘imasdan diqqatni to‘lab tura olishiga aytiladi. Diqqatning taqsimlanishiga subektning bir vaqtning o‘zida yo‘nalganligi va

imkoniyatiga aytiladi.

Diqqatning boshqaruvchilik funksiyasi boshqa bilish jarayonlaridan ancha farq qiladi. Bu esa uning turlarini psixik boshqarish usullari bilan munosabatida kuzatiladi. Diqqat turlarini tasniflashda ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatga ajratishga olib keldi. Ixtiyorsiz diqqat ta'sir ko'rsatuvchining fizik xususiyatlariga bog'liq (jadalligi, kontrastligi, davomiyligi, tasodifiyligi va boshq.). Agar diqqatning yo'nalganligi va to'planganligi anglashilgan maqsadga asoslangan bo'lsa, bu ixtiyoriy diqqat, deb ataladi. Ikkita turi bilan bir qatorda va ulardan farqli ularoq, uchinchi turi-ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat ham mavjud. Bunda qandaydir vazifa ongli amalga oshirilganligi bilan, shaxsning bu faoliyatga singib ketishi irodaviy kuch talab etmaydi.

Diqqatning bir qator xususiyatlari mavjudki, ularga tanlovchanligi, kuchi, barqarorligi, to'planishi, hajmi, taqsimlanishi va ko'chishi kiradi. Diqqatning hajmi deganda, qisqa vaqt ichida idrok etilgan ob'ektlar miqdori tushuniladi. Qator tadqiqotchilar diqqatning hajmi deganda, axborot ko'lamidan kelib chiqib baholashadi. Ularning fikricha, sub'ektning bu axborotni o'zlashtirish uchun qanday qilib ongni to'plash imkoniyati bilan, baholanadi.

Diqqat hajmini tadqiq etish, odatda, individ tomonidan aniqlik bilan idrok etiluvchi, bir vaqtning o‘zida taqdim etiladigan unsurlar (raqamlar, harflar, jismlar va h.k.) sonini tahlil qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu maqsadlarda ***taxistoskop***dan foydalaniladi – ma'lum sondagi seskantiruvchilarni shunchalik tez, tadqiq qilinuvchi ko‘zlarini bir ob'ektdan boshqasiga olib ulgurmasidan oldin taqdim etishga imkon beradigan asbob, diqqat hajmi – individual tarzda o‘zgaradigan kattalik, lekin, odatda, odamlarda uning ko‘rsatkichi 5 ± 2ga teng bo‘ladi.

Har xil turli stimulli sharoitda diqqat ko'lamini ixtiyoriy boshqarish ancha cheklangan. Stimullarning ma'noli tuzilmasi esa, yuqori ko'rsatkichga olib keladi. Diqqat ko'lamining cheklanganligi sensor-pertseptiv zonaga tushgan ob'ektlarning doimiy ajratib olinganligi bilan belgilanadi. Ajratilmay qolgan ob'ektlar esa fon sifatida ishtirok etadi. Diqqat yo'naltirilgan bir qator ob'ektlar bo'ladiki, ammo ularning hammasini ham tanlab bo'lmaydi. Faqat diqqat ajrata olgan qismigina uning tanlovchanligini ifodalaydi.

Diqqatning barqarorligi- bu sub'ektning psixik faollik yo'nalishidan chalg'imasdan, ob'ekt ustida diqqatni to'plab tura olishi vaqtiga aytiladi.

Tajriba tadqiqotlari diqqatning ixtiyorsiz davriy tebranishlarga moyilligini ko‘rsatdi. Bunday tebranishlarning davrlari N.N. Lange bo‘yicha, odatda, 2-3 soniyaga, ortig‘i bilan esa 12 soniyaga teng bo‘ladi. Masalan, agar soatning chiqillashiga quloq tutib, unda fikrni jamlaydigan bo‘lsak, u holda u bir eshitiladi, bir eshitilmay qoladi. Diqqat tebranishi qonunga asoslangan bo‘lib, ***fluktuatsiya*** deb ataladi. Masalan, diqqat fluktuatsiyasini oddiy tajribada namoyish qilish mumkin: kesik piramida beriladi: agar unga ma'lum vaqt davomida tikilib turilsa, u ketma-ket, yo qavariq, yo botiq bo‘lib ko‘rinadi.

Hozirda diqqat barqarorligining ahamiyatli sharti bo‘lib, u jamlangan jismning yangi tomonlari va aloqalarini ochib berish imkoniyati xizmat qilishi isbotlandi. Diqqat barqarorligini o‘lchash uchun alohida harflarning tartibsiz ketma-ketligidan

iborat Burdon jadvalidan foydalaniladi, bunda qaytariladigan harflar soni har bir satrda bir xilda bo‘ladi.

Diqqatning to‘planganligi har xil chet ta’sirlar sharoitida sub’ektning ob’ekt ustida ongini to’plab tura olish qobiliyati bilan izohlanadi.

Diqqatning taqsimlanishi sub’ektning bir vaqtning o’zida bir necha ob’ektga yo’nalganligi va imkoniyatiga aytiladi.Eksperimentda diqqatning taqsimlanganligini bir topshiriqni bajarishda qanchalik vaqt ketganligini, aynan ushbu topshiriqni boshqalari bilan birgalikda bajargan sharoitda qanday natija berganligi bilan taqqoslanadi. Diqqat taqsimlanishini o‘rganish maqsadida SHulte (qizil-qora rangli jadvallar) jadvallari qo‘llaniladi.

Diqqatning ko‘chishi deganda, bir ob’ektdan ikkinchi bir ob’ekga, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ixtiyoriy ko’chib o’tishi bilan xarakterlanadi.


Yuqorida sanab o’tilgan diqqat xususiyatlari funktsional birlikka ega va ularni ajratish esa eksperimental usullar orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababli ham bugungi kunda diqqat xususiyatlarini o’rganishda psixologiya tarmoqlarida mavjud usullarning boshqa fanlar usullari bilan o’zaro hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Diqqatni jamlash ostida diqqatning jismda jamlanganlik jadalligi yoki darajasi tushuniladi. A.A. Uxtomskiyning fikriga ko‘ra, diqqatni jamlash bosh miya po‘stlog‘idagi kuchli qo‘zg‘alish o‘chog‘i faoliyatining xususiyati bilan bog‘liq.

Diqqatning bo‘linishi – bu diqqatni bir ob’ektdan ikkinchisiga ongli va anglangan holda o‘tkazish. Bo‘linish bilan ikki turli yo‘nalishga ega bo‘lgan jarayonlar bog‘liqdir, bular: diqqatni ishga tushirish va uzib qo‘yish. Bo‘linish ixtiyoriy bo‘lishi mumkin, u holda uning tezligi – bu sub’ektning o‘zining idrok qilishi ustidan irodali nazorati darajasining ko‘rsatkichi, va diqqatning bo‘linishi bilan bog‘liq ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin, bu yo ruhiyatning beqarorligi darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi, yo kutilmagan kuchli seskantiruvchilarning paydo bo‘lishidan dalolat beradi.

Bo‘linishning samaradorligi avvalgi va keyingi faoliyatni bajarish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi (bo‘linish ko‘rsatkichlari engil faoliyatdan og‘ir faoliyatga o‘tishda ancha kamayadi, aksincha bo‘lganida esa, oshib ketadi). Bo‘linish natijasi insonning avvalgi faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq: avvalgi faoliyat qanchalik qiziqarli va keyingisi unchalik qiziqish uyg‘otmagan bo‘lsa, diqqatning bo‘linishi shunc[illegible]Bo‘linishda asab tizimining xususiyatlari, xususan, as[illegible]zg‘aluvchanligi tomonidan belgilangan individual tafovutlar mavjud.

Chalg‘ituvchi ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati ***to‘siqlarga mos*** [illegible]di. Odamlarda bu qobiliy[illegible]v tizimidagi farqlar, aynan uning kuchi, shuningdek, to‘siqlarga qarshilik ko‘rsatishni osh[illegible]us mashqlar bilan belgilangan ko plab individual tafovutlar kuzatiladi.



Chizma-1

Parishonxotirlik 2 xil bo‘ladi:

1. *Soxta parishonxotirlik.*

2. *Haqiqiy parishonxotirlik.*

Diqqat xususiyatlarini o‘rganishda ***parishonxotirlik*** haqidagi masala muhim ahamiyat kasb etadi. Parishonxotirlik deb, odatda, ikki turlicha hodisaga aytiladi. Birinchidan, ko‘p hollarda parishonxotirlik deb, insonning atrofidagilarga e’tibor bermasdan, ishga haddan tashqari berilib ketishining natijasiga aytiladi. Parishonxotirlikning bu turi u yoki bu faoliyatda kuchli jamlanganlik natijasida yuzaga kelganligi sababli ***soxta parishonxotirlik*** deb ataladi.

Parishonxotirlikning umuman boshqa bir turi inson diqqatini hech bir narsada uzoq vaqt jamlay olmagan vaziyatda, hech birida ushlanib qolmasdan, muntazam ravishda bir ob’ektdan ikkinchisiga yoki bir hodisadan ikkinchisiga o‘tib turishida kuzatiladi. Parishonxotirlikning bu turi ***haqiqiy parishonxotirlik*** deb ataladi. Haqiqiy parishonxotirlikdan aziyat chekuvchi insonning ixtiyoriy diqqati o‘ta beqarorligi va chalg‘ib turishi bilan farqlanadi.

Haqiqiy parishonxotirlikning sabablari turlichadir. Bular asab tizimining umumiy izdan chiqishi, qon kasalliklari, kislorod etishmovchiligi, jismoniy yoki aqliy toliqish, og‘ir hissiy kechinmalar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, diqqat parishonxotirligining sabablaridan biri olingan taassurotlarning ko‘pligi, shuningdek, betartib havas va qiziqishlar ham bo‘lishi mumkin.

Diqqatning rivojlanishi. Diqqat o‘zining rivojlanish bosqichlariga ega. Bola hayotining birinchi oylarida faqat ixtiyorsiz diqqatning mavjudligi kuzatiladi. Bola dastlab kuchli yoki keskin farq qiladigan tashqi qo‘zg‘atuvchilarni sezadi. Uch oylik bo‘lishi bilan bola, hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ob’ektlar bilan ko‘proq qiziqa boshlaydi. 5-7 oyligida bola etarlicha uzoq vaqt davomida qandaydir jismni kuzatishi, ushlab ko‘rishi, og‘ziga olishi mumkin. Ayniqsa, yorqin va yaltiroq jismlarga bo‘lgan qiziqishi yaqqolroq ko‘rinadi. Bu ixtiyorsiz diqqatning to‘la rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ixtiyoriy diqqatning nishonalari, odatda, birinchi yilning oxiri ikkinchi yilning boshlariga kelib, namoyon bo‘la boshlaydi. Bolada ixtiyoriy diqqatning shakllanishi va rivojlanishi uni tarbiyalash jarayoni bilan bog‘liq. Bolaning atrofidagi odamlar

asta-sekin bolani o‘zi istaganini emas, balki, uning qilishi zarur bo‘lganlarni bajarishga o‘rgatib boradilar.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o‘yin katta ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola o‘z harakatlarini o‘yin talablariga muvofiqlashtirishni va ularni qoidalarga mos ravishda yo‘naltirishni o‘rganadi. Ko‘pchilik jismlar va hodisalar bilan tanishib borish, oddiy munosabatlarni farqlash malakasining asta-sekin shakllanishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlashish, ular bilan sayr qilish va o‘yinlar o‘ynash, boshqa jismlar va o‘yinchoqlarni o‘ynatish – bularning barchasi bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, shu bilan birga, uning qiziqishlari va diqqatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy xususiyati ixtiyoriy diqqatining yetarlicha barqaror emasligidan iborat. Bola yot seskantiruvchilarga oson chalg‘iydi, uning diqqati o‘ta hissiyotlidir. Asta-sekin bolada mashqlar va iroda kuchi yordamida o‘z diqqatini boshqara olish layoqati shakllanadi.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida maktab alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab mashg‘ulotlari jarayonida bola intizomga o‘rganadi, unda qunt qilish, xulq-atvorini nazorat qilish layoqati shakllanadi. SHuni aytib o‘tish lozimki, maktab yoshida ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi ham ma’lum bosqichlardan o‘tadi. Boshlang‘ich sinflarda bola mashg‘ulotlarda o‘z xulq-atvorini to‘liq nazorat qila olmaydi, unda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi.

Yuqori sinflarda o‘smirning ixtiyoriy diqqati yuqori taraqqiyot darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchi etarlicha uzoq vaqt davomida ma’lum faoliyat turi bilan shug‘ullana oladi, o‘z hulq-atvorini nazorat qiladi. Lekin, shuni ko‘zda tutish lozimki, diqqat sifatiga tarbiyalash sharoitlarining o‘zi emas, balki, yosh xususiyatlari ham ta’sir ko‘rsatadi. 13-15 yoshlarda sodir bo‘ladigan fiziologik o‘zgarishlar yuqori darajadagi toliqish va ta’sirchanlik bilan birgalikda kechadi, va ba’zi holatlarda diqqatning pasayishiga olib keladi.

Diqqatning rivojlanishida ikki asosiy bosqichni ajratish mumkin: asosiy xususiyati tashqi tomondan belgilangan diqqatning ustunligidan iborat bo‘lgan maktabgacha rivojlanish bosqichi va ichki diqqatning jadal rivojlanishi xususiyatiga ega bo‘lgan maktab davri rivojlanishi bosqichlaridir.

Xulosa: Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, diqqat ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir ob’ektga aktiv (faol) qaratilishi ekan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsuldorligini oshirishga ta’sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan ob’ektlar ong to‘plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat-aqliy jarayonlarning sifati, mahsuldorligi va samaradorligini ta’minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
2. G‘oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002
3. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.

4.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.

5.Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.

6.Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o‘quv qo‘llanmasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: SHark, 2000.- 16 b.

7.Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: «Piter»,1999 - 688 s.

8.Metodы effektivnogo obucheniya vzroslых. Uchebno-metodicheskoe posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.

9. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. / Pod. red. A. Suxova i A.Dergacha.- M, 1998 - 688 s.

10.CHaldini R. Psixologiya vliyaniya. - SPb.: «Piter», 2000,-272 s.

11.“Psixologiya” Uch.T-2. “Prospekt”. Moskva - 2004.

12.Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiey A.A.Radugina. Izd. “Sentr” 2003.

TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION FAOLIYAT

Komilova Aziza Sunatullayevna,
Husenova Mohinabonu Qudrat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayonni tg‘g‘ri tashkil etish va uni olib borish qobiliyati, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, g‘qituvchining innovatsion faoliyati xususida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, kg‘nikma, malaka, pedagog, pedagogik jarayon, pedagogik muhit, innovatsiya.

Bugungi kunda zamonoviy sharoitda pedagogik muhitni tg‘g‘ri tashkil etish va uni olib borish qobiliyati orqali pedagogning mutaxasisligidan kelib chiqib, kasbiy tayyorgarligi, ya'ni pedagogik boy tajribaliligi, psixologik bilimlarga ega bg‘lish, ta`lim tarbiya jarayonini tashkil etishda g‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini xisobga olish, o‘quvchilarning bilim ko‘nikma va malakasini muvofiqlashtirish, ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda yuksak mahorat egasi bg‘lish muhim sanaladi. Darsni muvaffaqiyati va samarasi kg‘p jihatdan pedagogik jarayonlarni ko‘rsatmalilik, uzviylik, uzluksizlik va ilmiylik asoslarida tashkil etishga bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarning berilayotgan ma'lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida, yuqori samadorlikka erishish, bu bilan bir qatorda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri – o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o‘rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, N.Gross, R.Karlson, R.Edem, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda